

**“Odnoklassniki” (birligi “OK”) Ijtimoiy tarmog’ining
Qo’shimcha funksiyalaridan foydalanish huquqining o’lchov birligini sotib olish uchun
ochiq oferta**

Mazkur hujjat “Prime Media Solution” MChJning O’zbekiston Respublikasi hududida “Odnoklassniki” ijtimoiy tarmog’i (bundan buyon – Ijtimoiy tarmoq) Foydalanuvchilariga Ijtimoiy tarmoqning pulli kontentidan foydalanish huquqini, hususan Ijtimoiy tarmoqning Qo’shimcha funksiyalaridan foydalanish huquqini berish to’g’risidagi shartnomani (bundan buyon - Shartnoma) tuzish to’g’risidagi rasmiy taklif (ochiq oferta) hisoblanadi.

“Prime Media Solution” MChJ yuqoridagi kontentning huquqiy egasi hisoblanadi va Ijtimoiy tarmoq Huquqiy egasi (Litsenziar yoki Sublitsenziar) bilan tuzilgan Litsenziya haqidagi shartnoma asosida o’zining nomidan undan foydalanish huquqiga ega.

Ushbu Ofertada nazarda tutilgan harakatlarning Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilishi uning quyida berilgan shartlarga (Oferta aktsepti) so’zsiz roziligini ifodalaydi. Oferta aktsepti vaqtdan boshlab Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomada nazarda tutilmagan barcha masalalar bo’yicha tomonlar O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonuniga va ish aylanmasi qoidalariga muvofiq idora etiladi.

1. ATAMALAR VA TAVSIFLAR

Ijtimoiy tarmoq – (ok.ru yoki odnoklassniki.ru) manzili bo’yicha Internet tarmog’idagi saytda joylashgan, “Odnoklassniki” nomi ostida mashxur bo’lgan ijtimoiy tarmoq, bundan buyon Sayt va Foydalanuvchi uchun Saytga kirish imkoni, Saytning mobil versiyasi, ilovalar va boshqa resurslar, intellektual faoliyatining quyidagi natijalarning majmui:

1) EHM uchun dasturlar va audiovisual tasvirlar (jumladan o’z tarkibiga grafik tasvirlar va foydalaniladigan interfeyni oladi) Foydalanuvchilar uchun butunjahon Internet tarmog’iga kirish imkoni, Shaxsiy sahifalarni yaratish va boshqa Foydalanuvchilarning Shaxsiy sahifalari bilan tanishib chiqish, boshqa Foydalanuvchilar haqida ma’lumotlarni kontekst qidiruvini amalga oshirish, boshqa Foydalanuvchilar bilan Shaxsiy xabarlar bilan almashish, guruglar va birlashmalar tuzish, allaqachon mavjud gurug va birlashmalarga qo’shilish, shaxsiy kompyuterga rasmlar va boshqa Kontentlar joylash, nusxa olish va yuklash, Saytda ko’rsatilgan boshqa funksiyalardan foydalanish;

2) Litsenziar va Sayt Foydalanuvchilari tomonidan joylashtirilgan ma’lumotlar majmui va Kontent shaklidagi ma’lumotlar bazasi, jumladan, Shaxsiy sahifalarni yoki Shaxsiy sahifalarni yaratish va to’ldirish;

Ijtimoiy tarmoqdan foydalanish va xizmat ko’rsatish, jumladan unga kirish imkoni, hamda texnik va tashkiliy hamkorlik, Litsenziar tomonidan va bepul asosda amalga oshiriladi. Foydalanuvchilarning Ijtimoiy tarmoqda ishtirok etishi butunjahon Internet tarmog’i orqali Saytga Foydalanuvchining ulanishi yordamida interaktiv (onlayn) rejimda amalga oshiriladi. Litsenziar EHM va alohida ham jamuljam olingan uning barcha tarkibiy qismlari, hamda Kontentdan tashqari, audiovizual elementlar, Ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilmagan, uchinchi shaxslarga tegishli bo’lishi mumkin bo’lgan elementlarga bo’lgan huquqlar uchun dastur sifatida Ijtimoiy tarmoqqa bo’lgan huquqlarning egasi hisoblanadi. Litsenziar o’zi uni foydalanishini, yuritilishini va tarqalishini ta’minlaydigan tegishli hududlarda Ijtimoiy tarmoqdan foydalanish, yuritish va tarqatish huquqiga ega. O’zbekiston Respublikasi hududida Litsenziar pulli kontentidan foydalanish huquqi “Prime Media Solution” MChJga tegishli.

Litsenziar–Foydalanuvchilarga o’ziga xos bo’lmagan litsenziyalar sharti bilan EHM uchun dasturlar sifatida Ijtimoiy tarmoqdan foydalanish huquqini beruvchi va Ijtimoiy tarmoqni boshqarish, xizmat ko’rsatish, yuritish, tarqatish, ma’lumotlar yetkazishni amalga oshiruvchi “Mail.Ru” Mas’uliyati cheklangan jamiyatidir. Litsenziar Ijtimoiy tarmoqdan foydalanish va Ijtimoiy tarmoq hamda uning Qo’shimcha funksiyalariga kirish huquqini beradi.

Sublitsenziar– Litsenziardan o’ziga xos bo’lmagan litsenziyalar sharti bilan Ijtimoiy tarmoqning Qo’shimcha

funksiyalaridan foydalanish huquqi birligini va pulli kontentdan foydalanish huquqini olgan yuridik shaxsdir. Sublitsenziar litsenziya shartnomasi bilan ruxsat etilgan mustaqil olingan huquqlardan foydalanish yoki ularni Litsenziar ruxsati bilan shunga o'xshash maqsadlarda boshqa shaxslarga berish huquqiga ega.

Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha funksiyalaridan foydalanish huquqini o'lchash birligi (Huquqlarni o'lchash birligi) – Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha funksiyalaridan foydalanish bo'yicha Foydalanuvchining huquqlarini hajmini belgilovchi, Foydalanuvchining Akkauntiga nisbatan Litsenziar qiluvchi shartli belgi (universal ball). Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha Funksiyalariga nisbatan huquqlarni o'lchash birligi "OK" hisoblanadi. Foydalanuvchiga Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha Funksiyalaridan foydalanish uchun berilgan huquq hajmi Foydalanuvchi Akkauntiga nisbatan huquqni o'lchash birligining miqdoriga qarab belgilanadi. Litsenziat Akkauntiga bo'lgan huquqlarni o'lchash Birligini hisoblash va ifodalash va hisobdan chiqarish Qo'shimcha funksiyalardan foydalanish huquqini olish usuli va Litsenziar tomonidan belgilangan cheklolarga bog'liq.

Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha funktsiyasi – Ijtimoiy tarmoqning qo'shimcha funktsional (dasturiy) imkoniyatlari (boshqa Foydalanuvchilarga grafik rasmlar ("sovg'alar") jo'natish, Ilovalar tarkibiga kiruvchi belgilangan o'yinlardagi qo'shimcha elementlarda ishtirok etish yoki ishtirok etish va boshqalar), Litsenziar bilan Litsenziya Bitimi va Saytning tegishli bo'limlari bilan belgilangan narx, miqdor va kiritish shartlari bilan Foydalanuvchiga taqdim etiladigan foydalanish huquqi. Ijtimoiy tarmoq funksiyalarida Qo'shimcha funksiyalaridan foydalanish huquqini olishning boshqa usullari va undan foydalanish cheklolari nazarda tutilishi mumkin. Foydalanuvchi Ijtimoiy tarmoqning tegishli bo'limlarida ko'rsatilgan usullar va cheklolar bilan tanishib chiqishi mumkin.

Foydalanuvchi — Litsenziar bilan Litsenziya Bitimini tuzish uchun zarur salohiyatga ega bo'lgan, Ijtimoiy tarmoq ishtirokchisi hisoblangan va Litsenziya Bitimiga muvofiq, Bitimda nazarda tutilgan cheklolarda Ijtimoiy tarmoqdan foydalanish huquqi beriladigan yuridik shaxsdir.

Litsenziya Bitimi (Bitim) — Ijtimoiy tarmoqdan, jumladan EHM uchun dastur sifatida Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha funksiyalaridan foydalanish huquqini berish haqidagi litsenziya bitimining barcha zarur va mavjud shartlarini o'ziga oluvchi, Litsenziar va Foydalanuvchi o'rtasidagi Litsenziya Bitimining matni. Bitimning ajralmas qismi Foydalanuvchining o'zini tutish qoidalari yoki Foydalanuvchi tomonidan belgilangan harakatlarni amalga oshirish qoidalari, hamda Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha funksiyalarining aniq elementlarini to'lash shartlari va Sayt bo'limlari va/yoki Ijtimoiy tarmoqning elementlarida Litsenziar tomonidan joylashtirilgan, Ijtimoiy tarmoqdan foydalanishning har qanday boshqa qoidalari, jumladan saytning mobil versiyasi va Litsenziarning Ilovalari hisoblanadi.

Kontent – Ijtimoiy tarmoqda joylashtirilgan dizayn elementlari, illyustratsiya, grafik rasmlar, rasmlar, skriptlar, matnlar, video, musiqa, ovozlar va intellektual faoliyat natijasi hisoblangan yoki hisoblanmagan boshqa obyektlar, Litsenziar, Foydalanuvchilar yoki boshqa shaxslarga tegishli bo'lgan huquqlar.

Bank (plastik) karta – O'zbekiston Respublikasi banki tomonidan emissiya qilingan, onlayn rejimda ishlaydigan to'lov kartasi.

2. AKTSEPT TARTIBI

2.1. Mazkur Oferta aktsepti Foydalanuvchilar tomonidan aktsept uchun nazarda tutilgan harakatlarning amalga oshirish, hususan Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha funksiyalaridan foydalanish huquqini o'lchash birligini sotib olish operatsiyalarini bajarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.2. Quyida berilgan shartlarga nisbatan noroziliklar bo'lsa, mazkur Oferta aktsepti hisoblangan harakatlarni amalga oshirmasligingizni so'raymiz.

3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. «Prime Media Solution» MChJ Foydalanuvchiga Ijtimoiy tarmoqning (birligi OK) Qo'shimcha funksiyalaridan foydalanish huquqini o'lchash birligiga nisbatan huquqni mazkur Ofertada kelishilgan narxda beradi.

3.2. Mazkur Oferta bo'yicha sotib olingan, Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha funksiyalaridan foydalanish huquqini o'lchash birligi Ijtimoiy tarmoq funksiyalarida nazarda tutilgan maxsus pulli kontentga almashtirish uchun o'z ixtiyoriga binoan Foydalanuvchi tomonidan ishlatilishi mumkin.

4. XIZMATLAR KO'RSATISH QIYMATI VA TO'LOVLARNI TO'LASH TARTIBI.

- 4.1. Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha funksiyalaridan foydalanish huquqini o'lchash birligining narxi mobil aloqa operatorlari bilan mavjud bitimlar asosidagi Narxnomaga (ilova 1) muvofiq belgilanadi. Tasdiqlangan narxnoma rasmiy saytida joylashtiriladi www.finmedia.uz.
- 4.2. To'lov milliy valyuta so'mda naqd pul ko'rinishida yoki huquqni o'lchash birligi uchun to'lovlarni qabul qilishni tashkillashtirish uchun "Prime Media Solution" MChJ jalb qilgan to'lov tizimi yoki instrument imkoniyatlariga muvofiq plastik kartalari bilan qabul qilinadi.
- 4.3. Agar to'lov naqd pul ko'rinishida qabul qilinsa, huquqlarni o'lchash birliklari "Prime Media Solution" MChJning to'lov tizimi (to'lov tizimi agenti) orqali o'tkaziladigan elektron reyestrda pul mablag'lari kelgan vaqtda Foydalanuvchiga o'tkaziladi.
- 4.4. Agar to'lov elektron tizimidan foydalangan holda (to'lov instrumenti orqali saytda to'lash) onlayn tarzda amalga oshirilsa, huquqlarni o'lchash birliklari Foydalanuvchining plastik kartasidan pul mablag'lari yechib olingan vaqtda Foydalanuvchiga o'tkaziladi.
- 4.5. Agar to'lov Ijtimoiy tarmoqda ro'yxatdan o'tgan Foydalanuvchining mobil telefoni raqami balansidan amalga oshirilgan bo'lsa, huquqlarni o'lchash birliklari mobil aloqa Operatori tomonidan Foydalanuvchining mobil telefoni raqami balansidan pul mablag'lari yechib olingan vaqtda Foydalanuvchiga o'tkaziladi.
- 4.6. Sotib olingan huquq birliklari qaytib berilmaydi.

5. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

- 5.1. "Prime Media Solution" MChJning majburiyatlari:
 - Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha funksiyalaridan foydalanish huquqlarini o'lchash birliklari uchun Foydalanuvchi tomonidan to'lovlar kiritilganidan so'ng, Foydalanuvchining akkauntida ularni Foydalanuvchi tomonidan sotib olingan hajmda ifodalashni ta'minlash;
 - Ushbu Shartnomaga muvofiq o'z majburiyatlarini amalga oshirish vaqtida unga ma'lum bo'lgan, Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlamaslik va uchinchi shaxslarga bermaslik.
- 5.2. Foydalanuvchining majburiyatlari:
 - Mazkur Shartnomaning talablarini bajarish;
 - Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha funksiyalaridan foydalanish huquqlarini o'lchash birligini onlayn olish uchun ishlatiladigan moslamaning axborot xavfsizligini mustaqil ta'minlash.
- 5.3. «Prime Media Solution» MChJ mazkur Ofertaga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega, bu haqida Foydalanuvchiga «Prime Media Solution» MChJ saytida ko'rsatilgan o'zgarishlarni nashr qilish yo'li bilan ma'lum qiladi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

- 6.1. Tomonlar mazkur Shartnomaning shartlarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq amalga oshirmaslik yoki tegishli tartibda amalga oshirmaslik uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olishadi.
- 6.2. Foydalanuvchi ushbu Shartnomaga muvofiq majburiyatlarni bajarmaslik yoki tegishli tartibda amalga oshirmaslik natijasida kelib chiqadigan har qanday zarar yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun javobgardir.
- 6.3. Foydalanuvchi o'zining shaxsiy ma'lumotlarini himoyalangan ulanishdan foydalanib, yoki zararlangan dastur va ilovalar tahdidi ostida qolgan moslamadan kiritishda to'liq javobgarlikni zimmasiga oladi.
- 6.4. «Prime Media Solution» MChJ shartnomaning shartlari amalga oshmaganligi uchun, agar bunday amalga oshmaslik Foydalanuvchi tomonidan bajarmaslik oqibatida kelib chiqqan bo'lsa, javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 6.5. Foydalanuvchi mazkur Ofertaning shartlari bilan tanishib chiqmagan va (yoki) o'z vaqtida tanishib chiqmaslik bilan bog'liq Foydalanuvchida kelib chiqadigan har qanday zararlar uchun «Prime Media Solution» MChJ javobgar emas.
- 6.6. «Prime Media Solution» MChJ shartnomaning shartlarini tegishli tartibda bajarmaslik uchun, agarda bu "Prime Media Solution" MChJ nazorat doirasidan tashqari sabablar tufayli kelib chiqqan bo'lsa, javobgar

hisoblanmaydi. “Prime Media Solution” MChJning nazorat doirasi faqat tegishli tartibda sotib olingan Foydalanuvchining akkauntida huquqlarni o’lchash birligini o’z vaqtida va to’liq ifodalash bilan cheklanadi va uchinchi shaxslar aybi bilan yoki davlat yoki sud hokimiyati organlari tomonidan ta’qiqlar yoki cheklovlarni kiritish bilan bog’liq ravishda kelib chiqadigan to’xtashlar uchun javobgarlikni o’z bo’yniga olmaydi.

6.7. Tomonlar Shartnomaga binoan majburiyatlarning bajarilmasligi yoki tegishli tartibda bajarilmasligi uchun, agar Tomonlar oqilona choralar (fors-major) bilan bartaraf etolmagan yoki oldindan ko’ra olmagan favqulodda holatlar oqibatida kelib chiqqan bo’lsa javobgarlikdan ozod etiladi.

7. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

7.1. Foydalanuvchi mazkur Ofertaning aktseptida nazarda tutilgan operatsiyalarni bajarishni rad etib, istalgan vaqtda Shartnomani bajarishdan bosh tortish huquqiga ega.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. “Prime Media Solution” MChJ va Ijtimoiy tarmoqning Huquqiy egasi o’rtasidagi Litsenziya bitimi asosida ushbu Shartnoma 1 iyul 2016 yilda kuchga kiradi va tomonlardan biri Ofertaning otziviga qadar amal qiladi.

8.2. “Prime Media Solution” MChJ www.finmedia.uz rasmiy saytda nashr etish yo’li bilan Foydalanuvchiga bu haqida xabar berib, o’z ixtiyoriga ko’ra istalgan vaqtda Ofertani qaytarib olish huquqiga ega. Rasmiy saytda e’lonlarni joylashtirish fakti so’zsiz Foydalanuvchiga xabar berish bo’yicha majburiyatlarni tegishli tartibda amalga oshirish hisoblanadi.

9. KELISHMOVCHILIKLARNI KO’RIB CHIQISH TARTIBI

9.1. Ushbu Shartnomadan kelib chiqqan har qanday kelishmovchiliklar tinchlik yo’li bilan, yoki Foydalanuvchining yozma murojaatiga binoan da’vo qilish tartibida hal qilinadi. Murojaatlarni va talablarni ko’rib chiqish muddati O’zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

9.2. Agar kelib chiqqan kelishmovchilik da’vo qilish tartibida tartibga solinmasa, O’zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda, javobgarning joylashgan manzili bo’yicha tegishi sudlarda ko’rib chiqiladi.

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Shartnomada nazarda tutilmagan masalalar bo’yicha tomonlar O’zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va ish aylanmasi qoidalariga muvofiq tartibga soladi.

10.2. Mazkur Ofertaning Aktsepti bilan Foydalanuvchi Shartnomaning barcha shartlariga so’zsiz roziligini tasdiqlaydi va uni bajarish mas’uliyatini oladi.

11. REKVIZITLAR:

«PRIME MEDIA SOLUTION» MChJ

100000, Toshkent sh., Mustaqillik shoh ko’chasi, 59A uy

h/r 20208000800604762001

OPERU ATB«Kapitalbank»

MFO 00974

STIR 303876560

OKED 62090

Telefon: (+998 99) 844-4529

e-mail: info@finmedia.uz

Litsenziya: AA № 0005953 09 sentabr 2016y.

Narxnoma

«Odnoklassniki.ru» Ijtimoiy tarmoqning Qo'shimcha funksional
haqiqiy bilan 01.06.2017y.

To'lov tizimi	1 OK qiymati, sum
PayME	300
CLICK	
MBANK	
Beepul	
Kapitalbank	
Woy-wo	
UPAY	
PayNET	
Eng kam to'lov	500